

97. Perpendikular to'g'ri chiziqlar

Yondosh mavzu:
musiqa, qo'shiq aytish.


Doira, aylana, radius, diametr,
sektor, doiraning qismi.




1. Rasmdan kesishmaydigan va kesishadigan to'g'ri chiziqlarni toping. Hech qachon kesishmaydigan to'g'ri chiziqlar qanday ataladi?




2. Tadqiqot. Bir varaq qog'oz olib, o'rtasidan buklang. Bukish chizig'ini silliqlab, aniq ko'rinadigan qiling. Endi varaqni yana o'rtasidan buklang. Endi varaqni yoying. Bukish chiziqlari kesishdimi? Ular qanday burchak ostida kesishdi?




1



2



3




Agar to'g'ri chiziqlar to'g'ri burchak ostida kesishsa, ular perpendikular to'g'ri chiziqlar deb ataladi.

a va b – perpendikular to'g'ri chiziqlar

97. Perpendikular to'g'ri chiziqlar




3. Rasmdan parallel va perpendikular chiziqlarni toping.



4. Uzunligi 10 cm bo'lgan gorizontaal AB kesma yasang. Uning o'rtasida O nuqtani belgilang. O nuqtadan perpendikular to'g'ri chiziq o'tkazing. Bu to'g'ri chiziqni qanday o'tkazganingizni tushuntirib bering.



5. To'g'ri to'rtburchakning ichiga bir xil radiusli doiralar joylashtirilgan. Har bir doiraning radiusi 2 cm. Bu to'g'ri to'rtburchakning tomonlari va perimetrini toping.



6. Qo'shiqchilik tanlovida 75 kishi qatnashyapti. Ularning uchdan bir qismi musiqa maktabida o'qiydi, qolganlari esa havaskor qo'shiqchilar. Tanlovda havaskorlar professional qo'shiqchilardan necha marta ko'p?



7. O'quvchilar tarkibli ifodani hisoblayotib, quyidagi amallarni bajarishdi.

$$229 - 152$$

$$687 : 3$$

$$879 - 192$$

Ular bu amallarni qanday tartibda bajarishgan? Berilgan amallar tartibiga qarab, ifodani tiklashga harakat qiling.

97. Perpendikular to'g'ri chiziqlar



8. Agar $a = 567$, $b = 198$, $c = 738$ ekani ma'lum bo'lsa, ifodalarning qiymatini toping.

$$2 \cdot a + 3 \cdot b$$

$$(a + c) - b$$

$$7 \cdot (a + b - c)$$

$$(a + b + c) : 9$$



9. Tenglamalarni yeching.

$$2 \cdot x + 234\,478 = 618\,324$$

$$300\,000 - y \cdot 7 = 28\,687$$



10. Aziza, Madina, Umida va Komil g'ijjak, nay, chang va rubob chalishni o'rganishyapti. G'ijjakchi qiz bilan Aziza – yaqin dugonalar. Umida, Komil va rubobchi qiz musiqa maktabiga dushanba, chorshanba va juma kunlari, Madina, Aziza va changchi qiz esa seshanba, payshanba va shanba kunlari kelishadi. Aziza chaladigan musiqa asbobi rubobdan kichikroq, Umida esa chaladigan musiqa asbobi katta bo'lgani uchun, u darsga faqat notalarini ko'tarib keladi. Har bir qizning qaysi cholg'u asbobini chalishini toping.



11. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Bu yerda qaysi musiqiy atama yashiringan? Uning ma'nosi nima?

$$532 - (1092 - 336) : 4 + 26 \cdot 41$$

A 1 066

I 189

O 1 409

P 756

V 1 036

L 1 257

N 343

R 1 136



12. Sxema bo'yicha masala o'ylab toping va uni yeching.

?

